



O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA SON SO'Z TURKUMINING MA'NOSIGA KO'RA TURLARI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi 2-
bosqich talabasi.

M. Xudayarova

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10784413>

ARTICLE INFO

Received: 29th February 2024

Accepted: 05th March 2024

Online: 06th March 2024

KEYWORDS

*Son, aniqlovchi, to'ldiruvchi,
ega, kesim, predmet, miqdor,
qiyosiy tipologiya, yuklama.*

ABSTRACT

*Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida son
so'z turkumining qiyosi, sintaktik vazifalari, o'xshash va
farqli tomonlari tadqiq etildi.*

Har 3 tilda ham son so'z turkumi predmetning miqdorini, son-sanog'ini bildirib, ma'no xususiyatlari va grammatik belgilariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Sanoq sonlar – количественные числительные – sanaq sanliqlar: ikki – два – eki; to'rt – четыре – to'rt kabi.
2. Tartib sonlar – порядковые числительные – qatarliq sanliqlar: birinchi – первый – birinshi; elliginchi – пятидесяти – eliwinshi kabi.
3. Jamlovchi sonlar – собирательные числительные – jiynaqlaw sanliqlar: ikkov, ikkala – двое – ekew; yettov – семеро – jetew kabi.
4. Dona sonlar – штучные числительные – qoraqalpoq tilida bunday sonlarga ajratilmagan: bitta, bir dona – одна штука; beshta, besh dona – пять штук kabi.
5. Chama sonlar – неопределённые числительные – shamaliq sanliqlar: beshtacha – около пяти штук – besewdey kabi.
6. Taqsim sonlar – разделительные числительные – toplaw sanliqlar: uchtdan – по три – u'shewden; yuztdan – по сто – ju'zden kabi.
7. Kasr sonlar – дробные числительные – bo'lshek sanliqlar: o'ndan uch – три десятых – onnan u'sh; beshdan to'rt – четыре пятых – besten to'rt kabi¹.

1. Sanoq sonlar – количественные числительные – sanaq sanliqlar har 3 tilda ham umuman aniq emas sonni bildirish bilan bir qatorda, narsa, hodisa, va ish-harakatning aniq sonini ham bildiradi va shu narsa, ish-harakatlarning sonini ko'rsatkich belgisi sifatida ularning oldida turadi. Sanoq sonlar o'zi qatnashgan so'zlar bilan qo'llanganda necha? qancha? savollariga javob beradi.

2. Tartib sonlar – порядковые числительные – qatarliq sanliqlar – narsalarning tartibini, ketma-ketlik o'rnini bildiradi. Tartib sonlar ma'no jihatidan narsalarning tartibini, ketma-ketligini bildirgani uchun aniq ma'noga ega bo'ladi. Masalan: sanoq son narsalarning

¹ Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1986. – B. 115.



umumiy sonini bildirsa, tartib sonlar tartib bo'yicha sanashning aniq o'rnini, sanash tartibining nechanchisi ekanligini bildiradi. O'zbek tilida tarib sonlar sanoq sonlarga –inchi, –nchi affikslarini, qoraqalpoq tilida –inshi, -nshi affikslarini qo'shish orqali yasaladi. Rus tilida esa, tartib sonlarning yasalihi ancha murakkab. Ya'ni один va два (две) sonlarining tartib shakli boshqa o'zaklardan yasaladi. Masalan: один – первый, два (две) – второй kabi. Bundan tashqari, tartib sonlarning quyidagi turlari ham mavjud: три- третий, четыре – четвёртый, сорок – сороковой, сто – сотый, двести – двухсотый, триста – трёхсотый kabi.

3. Jamlovchi sonlar – собирательные числительные – jiynaqlaw sanliqlar – narsa va hodisalarning sonini jamlab, umumlashtirib ko'rsatadi. Jamlovchi son ma'no jihatidan sanoq sonlarga yaqin, shuning uchun ham og'zaki sanashda sanoq sonlarning o'rnida qo'llanilib ketishi ham mumkin. Quyida jamlovchi sonlarning o'zbek, rus va qoraqalpoq tilida o'xshash va farqli yomonlarini ko'rib chiqamiz:

1. O'zbek va qoraqalpoq tillarida rus tilidagi оба, обе so'zlariga mos leksik ekvivalentlar yo'q. Shuning uchun bunday jamlovchi sonlarning ma'nolari ikkov, ikkala so'zlari bilan beriladi. Masalan: Talabalarining ikkovi ham topshiriqni bajardi. – Оба студента выполнили задание. – Studentlerdin' ekewi de tapsirmani isledi.

2. O'zbek va qoraqalpoq tillarida ikkov, uchov, to'rtov, beshov, oltov, yettov kabi jamlovchi sonlari ot bilan birikib kelmaydi. Ular ikkov qiz, to'rtov talaba kabi birikma hosil qila olmaydi. Faqat qaratqich kelishigidagi oldan keyingina qo'llana oladi: bolalarning ikkovi, talabarning beshovi kabi.

3. O'zbek va qoraqalpoq tillarida jamlovchi sonlar, odatda, egalik affikslarinining I, II, III shaxs ko'pligida qo'llanadi. Rus tilida esa, bunday hollarda kishilik omoshlari jamlovchi sonlardan yasalgan ravishlar: вдвоём, всемером kabi so'zlar bilan birikib keladi: To'rtovingiz yaxshi ishladingiz. – Вы вчетвером работали хорошо. – To'rtewin'iz jaqsi isledin'iz kabi.

4. Dona sonlar – штучные числительные – o'zbek tilida dona sonlar (bitta, ikkita, uchta) keng qo'llaniladi. Rus tilida donalik ma'nosini штука so'zi ifodalaydi, ammo bu so'z tilda kam qo'llaniladi. Odatda, son bilan birikib kelmaydi. Masalan: ikkita qovun – две (штуки) дыни, beshta olma – пять (штуки) яблок kabi. Qoraqalpoq tilida dona sonlar yo'q. Ya'ni o'zbek tilidagi ikkita, uchta so'zlarini qoraqalpoq tilidagi sanoq sonlar ifodalaydi. Masalan: Beshta talaba – bes student, oltita apelsin – alti apelsin kabi.

5. Chama sonlar – неопределённые числительные – shamaliq sanliqlar – narsalarning, hodisa va ish-harakatlarning miqdorini chama bilan ko'rsatadi. O'zbek tilidagi beshtacha, o'z sakkiztacha, yigirmatacha yuzlab, minglab kabi chama sonlarning ma'nolarini rus tilida около old ko'makchisining sanoq son bilan birikib kelishi yoki sanoq sonning aniqlovchi ot bilan o'rin almashinishi orqali, yoxud десяти, сотни shklidagi so'zlar bilan beriladi. Qoraqalpoq tilida chama sonlar ikki xil usul bilan yasaladi.

1. Chama sonlarga –day/ -dey, -lag'an/ -legen qo'shimchalarining to'g'ridan- to'g'ri yoki sonlar bilan bilga qo'llanadigan numerativ so'zlarga qo'shilib kelishi natijasida yasaladi. Masalan: jigirmaday, eliwdеy, millionlag'an, onlag'an kabi.

2. Son tarafidan bir-biriga jaqin bo'lgan jamlovchi va tartib sonlarning o'zaro juftlashib kelishidan yasaladi. Bunday yasalihi juft so'zning tarkibida kichik son oldin, katta son keyin keladi. Masalan: eki- u'sh, to'rt-bes, on- on bes kabi.



6. Taqsim sonlar – разделительные числительные – toplaw sanliqlar – predmetlarni son tarafidan bir guruhga taqsimlab yoki to'plab ko'rsatadi. Taqsim son - sanoq va jamlovchi sonlardan yasali, yakka va juft so'z holida qo'llaniladi. O'zbek tilida taqsim sonlar dona sonlarning chiqish kelishigidagi formasi bilan ifodalanadi. Masalan: o'ntadan, yuztadan, beshtadan kabi. Rus tilida taqsim sonlar son oldidan по old ko'makchisi bilan birikib keladi. Masalan: to'rttadan – по четыре, qirqtadan – по сорок kabi. Qoraqalpoq tilida taqsim sonlar yakka va juft so'z holidagi sanoq va jamlovchi sonlarga chiqish kelishigi qo'shimchasining qo'shilishi orqali yasaladi. Masalan: Barliq jaqtan birim-birim ekew-u'shewden, altaw-jetewden Eshimbettin' u'yine jigitler keke basladi. Sanoq va jamlovchi sonlarga -lap/ -lep qo'shimchalarining qo'shilishidan ham taqsim sonlar yasaladi. Masalan: Qaraqalpaqstannin' qizlari bizin' institutqa birimlep emes, onlap, ju'zlep kiretug'in bolsin kabi.

7. Kasr sonlar – дробные числительные – bo'lshek sanliqlar – butunning bo'lagini bildiradi. Kasr sonlar tuzilishi jihatidan ikki sonning qo'shilishi orqali yasalgan qo'shma son shaklida qo'llaniladi. Masalan: uchdan ikki, to'rttdan biri kabi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, son so'z turkumi har 3 tilda ham salmoqli o'ringa ega. O'zbek va rus tilida sonlar 7 turga, qoraqalpoq tilida esa 6 turga bo'linadi. Qoraqalpoq tilida dona sonlar yo'q. Ya'ni o'zbek tilidagi ikkita, uchta so'zlarini qoraqalpoq tilidagi sanoq sonlar ifodalaydi. Kasr sonlar har 3 tilda ham butunning bo'lagini ifodalaydi. Kasr sonlar qo'shma son shaklida qo'llaniladi. Bu esa o'zbek, rus va qoraqalpoq tilida o'xshashliklar ham farqlar ham talaygina ekanligini bildiradi.

References:

1. Azizov O va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.1965.
2. O.Azizov va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti. 1986.
3. Da'wletov A va boshqalar Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. No'kis: "Bilim" nashriyoti.2010.